

TA'LIMDA KASBIY KOMPETENTLIK USLUBLARNI ISHLAB CHIQISH JARAYONINI BOSHQARISH TEKNOLOGIYASI

Ismailov Dosbol Tileuberdiyevich

Chirchiq OTQMBYU kafedra katta o‘qituvchisi

Raxmanov Abdullo Asrorovich

Chirchiq OTQMBYU kafedra boshlig‘i o‘rinbosari

Annotatsiya. Maqolada ta’lim tizimida kasbiy kompetentlik uslublarini ishlab chiqish jarayonini boshqarish texnologiyasi, ya’ni ta’limni tashkil etishda samaradorlikka erishish shartlari hamda oliv harbiy ta’lim muassasalari kursantlarida kasbiy kompetentligini rivojlantirish modeli va texnologiyalari, shuningdek ta’limning pedagogik va didaktik shart-sharoitlari bayon etilgan.

Tayanch tushunchalar: boshqarish texnologiyasi, kasbiy kompetentligini rivojlantirish modeli, pedagogik shart-sharoitlar, didaktik shart-sharoitlar, didaktik ta’midot.

Аннотация. В статье рассмотрена технология управления процессом развития методов профессиональной компетентности в системе образования, то есть условия достижения эффективности в организации образования, а также модель и технологии формирования профессиональной компетентности у курсантов высшего военного учебного учреждений, а также изложены педагогические и дидактические условий обучения.

Ключевые слова: технология управления, модель развития профессиональной компетентности, педагогические условия, дидактические условия, дидактическое обеспечение.

Annotation. The article discusses the technology for managing the process of developing methods of professional competence in the education system, that is, the conditions for achieving efficiency in the organization of education, as well as the model and technologies for developing professional competence among cadets of higher military educational institutions, and also outlines the pedagogical and didactic conditions of training.

Keywords. management technology, model for the development of professional competence, pedagogical conditions, didactic conditions, didactic support.

Jahon ta’limi taraqqiyoti tajribasi shundan dalolat beradiki, bu jarayonda joriy etilgan ta’lim tizimining rivoji va takomillashuvi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Ta’limni tashkil etishda samaradorlikka erishish bir necha shartlar asosida kechadi. Chunonchi:

- o'qituvchilar hamda tinglovchilarning ta'lim jarayonini texnologik yondashuvlar asosida tashkil etish, ularning mohiyati va afzalliklari borasidagi nazariy bilimlardan xabardor bo'lishlariga erishish;
- o'qituvchilarda ta'limni yangicha yondashuv asosida tashkil etish borasidagi ehtiyojning yuzaga kelishini ta'minlash;
- ta'limni tashkil etishda noan'anaviy shakl, metod va vositalardan foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish;
- ta'limni tashkil etishda fan o'qituvchilari tomonidan axborotli texnologiyalar xizmatidan samarali foydalanishga imkon beruvchi shart-sharoitlarning mavjudligi;
- darslarning (har bir mavzu bo'yicha) muayyan loyiha asosida tashkil etilishiga erishish (1-rasm);
- tinglovchilar tomonidan mavzularning mustaqil ravishda o'qib-o'rganilishi uchun ma'lum imkoniyatlarni yaratish;
- darslarda tinglovchilar faoliyatining samaradorlik darajasini doimiy ravishda o'rganib borish, natijalarni tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilash.

Falsafiy jihatdan "shart-sharoit" tushunchasi "shaxs", "faoliyat", "materiya" kabi tushunchalar singari yetakchi hisoblanadi. "Shart-sharoit" tushunchasi kategoriya sifatida ko'rib chiqiladi. Mazmunan bu tushuncha predmetning uni o'rab turgan va ularsiz ushbu predmet mavjud bo'la olmagan, rivojlana olmagan hodisalarga nisbatan munosabatini aks ettiradi.

Didaktik ta'minot deganda psixologiya, pedagogika, valeologiya, informatika va boshqa fanlar talablarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan xilma-xil o'quv axborotlarining didaktik maqsad va vazifalariga ko'ra o'zaro aloqador majmui tushuniladi.

Didaktik ta'minot deganda shaxsning axboriy madaniyatini shakllantirish uchun didaktika, psixologiya, ergonomika, informatika va boshqa fan sohalarining muvafaqqiyatlariga asoslangan holda tashkil etilgan o'quv axborotlari majmuasidir.

Didaktik ta'minot quyidagi ko'rsatkichlar bilan baholanadi:

- 1) nazorat topshiriqlari, test savollari bankining mavjudligi;
- 2) o'quv fani bo'yicha didaktik materiallarning mavjudligi: audio-video materiallar, kompyuter dasturlari, jadval, slaydlar, tarqatma materiallar;
- 3) referat, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishlari mavzulari.

Didaktik ta'minot o'quv kursini o'zlashtirish uchun axborotlarning to'liqligi va etarli hajmda bo'lishi, pedagog va tinglovchilarning bирgalikdagi intellektual-emotsional o'zaro harakati mazmuni va usullarining variativligi, interfaollik, dialoglik, muammolilik, amaliy yo'naltirilganlik tamoyillari asosida ishlab chiqilgan axborotlarning originalligi va tartibga solinganligi bilan xarakterlanadi. U ta'lim oluvchining axborotlarni o'zlashtirish jarayonini tashkil etish, nazorat qilish va

korreksiyalash maqsadida foydalaniladi va ta'lim oluvchi shaxsini shakllantirish va o‘z-o‘zini rivojlantirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Didaktik shart-sharoitlar - bu belgilangan elementlarni tanlash, loyihalash va qo‘llash natijalari, belgilangan vazifalarni samarali hal qilishga hissa qo‘shadigan shakllar, usullar va o‘quv qo‘llanmalar.

So‘nggi yillarda olib borilgan pedagogik izlanishlarda tinglovchilarning kasbiy kompetentlikni rivojlantirish yoki shakllantirish uchun didaktik shart-sharoitlarning turli xil komplekslari ajratib ko‘rsatildi.

Shunday qilib, V.S. Yegorina didaktik shart-sharoitlarning quyidagi tizimini taklif etadi:

- kursantlarni fikrlashga operatsiyalarga o‘rgatish jarayonining maxsus tanlangan tarkibi;
- ta’limning motivatsion, mazmunli va operativ tarkibiy qismlarining birligini ta’minlash;
- tinglovchilarning bilish faoliyatining reproduktiv va mahsuldor tabiatining birligi;
- aqliy operatsiyalarni o‘zlashtirishda ularning mustaqillik darajasini bosqichma-bosqich oshirish;
- o‘qituvchining rag‘batlantiruvchi-kuchaytiruvchi faoliyati.

Ta’lim faoliyatini kuchaytirish usullari orasida ikkita asosiy narsa ajralib turadi: o‘quv materialining mazmuni va o‘quv jarayoni.

Pedagogik adabiyotlarda tasvirlangan o‘quv jarayonini faollashtirish usullarini tahlil qilaylik:

- bilimlarni uzatish va singdirish jarayonida turli xil ko‘ngilochar vazifalardan foydalanish, bu tinglovchilarning qiziqishlarini vaziyatga dastlabki e’tiborni bosqichma-bosqich barqarorroq qiziqishga o‘tkazish imkonini beradi;
- tinglovchilarni mavjud bilimlar zaxirasi va berilgan savollarga javob bera olmaslik o‘rtasidagi ichki qarama-qarshilikning paydo bo‘lishiga olib keladigan muammoli vaziyatni yaratish;
- didaktik o‘yinlardan kognitiv faoliyatni rag‘batlantirish sifatida foydalanish;
- ijodkorlik, hamkorlik, o‘zaro yordam muhitini yaratish;
- muvaffaqiyat holatini yaratish, kognitiv faoliyat ijobiy natija bergenida, kursantlar bilimga ega bo‘ladilar, ishonchli tarzda nazorat mashqlarini bajaradilar;
- guruh ishini tashkil etish, ular o‘rtasidagi raqobat muhitini qo‘llab-quvvatlash;
- mustaqil ishlarning har xil turlaridan foydalanish, o‘quv mashg‘ulotlarida amaliy ishlardan foydalanish;
- o‘quv materialining mazmuni aqliy jarayonlarning rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lishi kerak: diqqat, xotira, tasavvur va boshqalar.

Professional ta'lim tizimi tinglovchilarining kasbiy kompetentlikni shakllantirish jarayonini amalga oshirish uchun optimal pedagogik shart-sharoitlarni ajratib olish talab etiladi.


L.S.Vigotskiy aytganidek, “Ba’zi psixik xususiyatlarning rivojlanishi uchun avvaldan ma’lum shart-shroitlarni yaratish lozim, bu psixik xususiyatlar xali mustaqil faoliyat uchun tayyor bo‘lmasalar ham”.

Kasbiy kompetentlikni shakllanishiga yordam beruvchi pedagogik shart-shroitlarni ajratib ko‘rsatishdan avval, biz “pedagogik shart-sharoit” tushunchasiga aniq ta’rif berishimiz talab etiladi. Ilmiy adabiyotlarga bu masalaga turlicha yondashuvlarni uchratishimiz mumkin.

Pedagogik shart-sharoitlar bu – pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar yig‘indisi.

Pedagogik shart-sharoit deganda pedagog tomonidan u yoki bu ma’noda ongli ravishda loyihalangan va ma’lum maqsadni egallashga turtki beradigan pedagogik jarayonning kechishiga sezilarli ta’sir qiladigan tashqi shart-sharoitlarni tushunadi.

Maqsadga erishish yo‘lida ongli ravishda tanlangan, loyihalangan va qo‘llanilgan ta’limning tashkiliy shakllari, usullarining natijasi bu pedagogik shart-sharoitlardir.



1-rasm. Oliy harbiy ta’lim muassasalari kursantlarida kasbiy kompetentligini rivojlantirish modeli

Shunday qilib, “pedagogik shart-sharoit” tushunchasining ta’rifi belgilangan maqsadlarga muvaffaqiyatlari erishish, o’zaro ta’sir o’tkazish va bir-birini to’ldirish uchun pedagogik shart-sharoitlar sifatida yo’naltirilgan chora-tadbirlar majmuasi

sifatida shakllantirilishi mumkin, bu ularning tarkibiga tasodifiylarning kirib kelishiga to'sqinlik qiladi, ular kerakli samaradorlikni ta'minlashga hissa qo'shmaydi.

Oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlarning kasbiy kompetentligining shakllantirish shartlarini alohida ta'kidlab, biz ushbu shakllanish eng qulay bo'lgan muhitni nazarda tutamiz.

Bunday holda muhit elementlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

atrof-muhit obyektlari;

turli faoliyat shakllarini bajarish jarayoni subyektlari;

faol shaxs rivojlanishi va shakllanishi jarayonining spesifikasi;

berilgan jarayonni tashkil etish va amalga oshirish vositalari, shakllari, metodlari; tinglovchilarning kasbiy ta'limining o'ziga xosliklari.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha elementlar davlat ta'lim standartlari doirasida amal qiladi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Kasbiy kompetentlikning strukturali-mazmunli modeli

Ko'rsatkichlar	Tarkibiy qismlar		
	Kognitiv	Qadriyatli-yo'naltiruvchi	Kommunikativ-faoliyatli
Yo'nalghanlik	Bilishga oid	Hissiy-qadriyatli	Faoliyat va xulq-atvor
Tavsif	Muammo maydoni	Madaniy-ta'limiy makonni o'zlashtirish	Madaniy faoliyatga, muloqotga qodirlik
Kalit so'zlar	Anglash	Ishtirok, his qila bilish	Birgalikda harakat

Oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlarining kasbiy kompetensiyasini riovjantirishning pedagogik texnologiyasi bosqichlariga asoslangan holda, har bir bosqichida qo'llaniladigan shakl, metod va vositalarni quyidagicha loyihalab olish zarur (2-jadvalga qarang):

2-jadval

**Oliy harbiy ta'lif muassasalari kursantlarining kasbiy kompetensiyasini
rivojlantirish texnologiyasi**

Bosqichlari	Operatsion-tashkiliy	Ilmiy-nazariy	Ijtimoiy-psixologik
Shakllari	Individual, guruhli, ommaviy, ekskursiyalar, amaliy ish topshiriqlari, loyihalar.	Individual, guruhli, ommaviy, o'quv mashg'ulotlari, auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar, to'garaklar, juftliklarda ishslash, treninglar.	Individual, guruhli, ommaviy, munozaralar, treninglar, suhbatlar.
Metodlari	Mushohadali tajriba, mashq, real hayotiy vaziyatlar, loyihalar metodi, o'yin texnologiyalari, texnologik jarayonlarni immitatsion-o'yinli modellashtirish.	Ma'ruza, tushuntirish, o'quv dialogi va o'quv disskusiyasi, kontekstli ta'lif.	Muammoli tavsifdagi suhbat, bahs-munozarali o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish, erkin yozish, aqliy hujum, fikrlar hujumi, o'z-o'zini baholash.
Vositalari	Videoroliklar, tarqatma materiallar, o'quv amaliyot ustaxonasi jihozlari.	Mutaxassislik adabiyotlari, slayd-prezentatsiya, texnik jihozlar, o'quv darsliklari, elektron qo'llanmalar.	O'qituvchi nutqi, tarqatma materiallar.

Oliy harbiy ta'lif muassasalari kursantlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasining dastlabki bosqichi **operativ-tashkiliy bosqich** hisoblanadi. Faoliyat real pedagogik vaziyatlarni yaratish jarayonida tashkil qilinadi hamda motivatsion va mazmunli bosqich imkoniyatlari bilan birgalikda amalga oshiriladi.

Mazkur bosqichda mashq, namoyish etish, mushohadali tajriba, loyiha, o‘yinli vaziyat, texnologik jarayonlarni immitatsion-o‘yinli modellashtirish kabi metod va usullaridan foydalanish mumkin.

Loyihalash (lot. projectus – olg‘a tashlangan fikr, g‘oya, obraz), nomini o‘zi aytib turibdiki, kelajakda amalga oshiriladigan ishlarni rejalashtirish bo‘lib, proyekt ma’lum bir hisob-kitob, chizma va boshqalarga asoslangan holda tavsiflash, bayon qilish shaklida mujassamlashgan g‘oya, fikrning ifodasidir. U bildirilgan fikrni mohiyatini va uni amalga oshirish imkoniyatlarni ochib beradi.

Loyihalash metodi ta’lim jarayonining muhim jihatlaridan biri bo‘lib, o‘qituvchining kursantlar bilan individual ishslash imkonini beradi. O‘qituvchi dars vaqtidan unumli foydalanib, kursantlarning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ular bilan yakka tartibda ishlaydi. Bunda ularning kasbiy fanlarni chuqurroq egallashlariga kengroq yo‘l ochib beriladi. Loyihalash ishlarini tashkil etishda didaktik vazifaning qo‘llanilishi va uni hal etish muammolari ko‘rib chiqiladi.

Loyihalash metodi ta’lim oluvchilarini quyidagilarga o‘rgatadi:

- fanning turli sohalaridagi bilimlarni bir butun holga keltirib, muammolarni topish va echish, axborotlar oqimida mo‘ljal olish;
- faoliyatni tanlash huquqidan foydalanib, turli taxmin, g‘oyalarni ilgari surish, tadqiqot o‘tkazish, tahlil qilish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini aniqlash;
- o‘z faoliyati natijasiga mas’ul bo‘lish, mustaqil qaror qabul qilish, yutuqlar va kamchiliklarni aniqlash, uning sabablarini qidirish, xatolarni topish va to‘g‘rilash;
- turli echim va takliflarning natijalarini ilmiy taxmin qilish (prognozlash);
- jamoada ishslash, turli nuqtai nazar, fikrlarning muhokamasida qatnashishga rag‘batlantiradi.

Ta’lim oluvchilar loyiha ustida ishslash jarayonida olgan bilimlaridan, bilish jarayonida xizmat qiladigan amaliy maslahatlardan foydalanishsa, mustaqil tahliliy fikr yuritishga o‘rganadilar. Ularda yangi g‘oyalarni topish, ijodiy fikrlashga, to‘g‘ri strategiya tanlash, aniq masala-muammolarni echish ko‘nikmasi hosil bo‘ladi.

Texnologiyaning **ilmiy-nazariy bosqichi** asosida amaliyotchi kasbiy kompetensiya, uning komponentlari, strukturasi haqida tushunchalar, tasavvurlar hosil qilish, yaxlitlikda bilimlar berish yotadi. Ilmiy-nazariy bosqich o‘z navbatida **ikki qismdan tashkil topadi**: axboriy va kognitiv. Axboriy darajada kasbiy kompetensiya bilan bog‘liq nazariy bilimlar egallansa, kognitiv darajada mazkur bilimlarning amaliy-faoliyatli ko‘rinishiga o‘tkazilishi uchun zaruriy ko‘rsatmalar taqdim etiladi.

Mazkur bosqichda ma’ruza, tushuntirish, o‘rgatish, namuna ko‘rsatish, test (asosiy tushunchalar mazmuniga oid, tushunchali), o‘quv disskusiyasi, kontekstli ta’lim kabi metod va usullardan foydalanish maqsadga muvofiq. Quyida ushbu bosqichda kontekstli ta’lim metodidan foydalanishning imkoniyatlari haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Kontekstli ta'lim – bu professional ta'limda foydalanish uchun mo‘ljallangan, ta'lim oluvchilarning kasbiy tayyorgarligiga yo‘naltirilgan va kasbiy kontekstdan muntazam foydalanish, o‘quv jarayonini kasbiy faoliyat elementlari bilan bosqichma-bosqich boyitib borish orqali amalga oshiriladigan faol o‘qitish shakli.

Kontseptsiya 1991-yilda A.A.Verbitskiy tomonidan ishlab chiqilgan. Kontekstli ta'lim faoliyat nazariyasiga asoslanadi, unga ko‘ra ijtimoiy tajriba subyektning faol, manfaatli harakati natijasida o‘zlashtiriladi. **Unda quyidagi tamoyillar o‘z aksini topadi:** shaxsning faolligi; muammolilik; ta'lim va tarbiyaning birligi; ta'lim oluvchilarning o‘quv faoliyati shakllarida mutaxassisning kasbiy faoliyati mazmuni va shart-sharoitlari ketma-ketlikda modellashtirilib borilishi.

Ta'lim oluvchilarning nisbatan yuqori darajadagi bazaviy faoliyat shakllari: akademik tipdagisi o‘quv faoliyatidan kvaziprofessional faoliyatga (didaktik va ishbilarmonlik o‘yinlari orqali) keyinchalik esa, o‘quv-kasbiy faoliyatga (amaliyot, stajirovka) bosqichma-bosqich o‘tishiga alohida e’tibor qaratiladi. Umumta’lim fanlarini o‘qitishda ilmiy bilimni odatiy akademik tarzda bayon etishdan voz kechib, kasbiy kontekstdan kelib chiqish talab etiladi.

Kontekstli ta'limda nazariy yondashuvni amalga oshirish vositalari sifatida o‘qitishning faol metodlaridan keng foydalanish taklif etiladi. Shuningdek faol o‘qitishning turli shakl, metod va vositalaridan foydalanishga kompleksli yondashish va ularni an’anaviy metodlar bilan uyg‘unlikda qo‘llash maqsadga muvofiq.

Oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlarining kasbiy kompetensiyasini riovjantirishning ijtimoiy-psixologik bosqichi haqida gap ketganda eng avvalo, “motiv”, “motivlashtirish” tushunchalarining mazmun va mohiyatiga to‘xtalib o‘tish lozim.

Motivatsiya – motivlarning harakatlanish jarayoni, insonni asosiy faoliyatga undovchi motivlar yig‘indisi. Motiv esa fransuzchadan tarjima qilinganda, undovchi kuch, sabab degan ma’noni bildiradi.

Ijtimoiy-psixologik bosqichni amalga oshirishda maktab amaliyotchi psixologlari bilan ushbu bosqich maqsadidan kelib chiqib suhbatlar, munozaralar uyushtirish, shaxs rivojlanishi va shu kasbda ma’lum yutuqlarga erishgan insonlar hayoti haqida hikoya qiluvchi video lavhalardan foydalanish mumkin. Texnologiyaning mazkur bosqichida muammoli tavsifdagi suhbat, o‘yin tavsifidagi mashqlar, bahs-munozarali o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish, erkin yozish, aqliy hujum, o‘z-o‘zini baholash kabi metod va usullardan foydalanish maqsadga muvofiq. Quyida ulardan birini keltirib o‘tamiz.

Erkin yozish metodi – besh daqiqali essening boshqa ko‘rinishi bo‘lib, ishtirokchilarning muayyan mavzu bo‘yicha o‘z xayollariga kelgan barcha narsalarni to‘xtamasdan yozish mashqlaridan iborat. Masalan, ta'lim oluvchilarga besh daqiqa ichida “Ulug‘bek fojeasi” mavzusi bo‘yicha o‘z hayollariga kelgan barcha narsalarni

to‘xtamasdan yozishni taklif qilish mumkin. Besh daqiqa tugaganida (eslatma, besh daqiqa tugadi deb e’lon qiling va ishni tugallash uchun yana bir daqiqa vaqt bering, zero qiziqarli fikrlar odatda tang vaziyatlarda tug‘iladi) ularga o‘z yozganlarini sheriklariga o‘qib berishlarini taklif etish mumkin.

Mazkur bosqichda o‘qituvchining ixtiyorida ko‘p imkoniyatlar bo‘ladi. Masalan, juftliklarga o‘z fikrlarini butun guruh bilan o‘rtoqlashishni taklif etish va guruhli aqliy hujum vaziyatini yaratish mumkin.

Foydalilanigan adabiyotlar va manbalar

1. Mirziyoev Sh.M. Qurolli Kuchlarimiz – mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining mustahkam kafolatidir. /O‘zbekiston Respublikasi xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi yig‘ilishdagi nutqi.///Vatanparvar, 2023. 10 yanvar.
2. Psixologik-pedagogik atamalar izohli lug‘ati. – T.: O‘R Qurolli Kuchlari Akademiyasi, 2019 y. –116 b.
3. Satib-Aldiev A. Ofitserning pedagogik madaniyati. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent OUQBYu, 2013. – 38 b.
4. Satib-Aldiev A. Harbiy pedagogning kasbiy kompetentligi. //Harbiy ta’lim va fanda innovatsiyalar jurnali. 2018 y, 2-son. –3-8-betlar.
5. Falsafa: qomusiy lug‘at. – T.: Sharq, 2004. – 496 bet.
6. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2003, 5-jild. – 704 bet.
7. www.pedagog.uz
8. www.tdpu.uz
9. www.chdpu.uz
10. www.ziyonet.uz